



Semantic analysis of proverbs in unrelated languages (using German and Uzbek as examples)

Lazizjon SODIKOV¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised form

15 September 2025

Accepted 25 September 2025

Available online

15 October 2025

Keywords:

proverb,
semantics,
phraseology,
German proverbs,
Uzbek proverbs,
comparative analysis.

ABSTRACT

This article semantically analyzes proverbs in unrelated languages - German and Uzbek. Proverbs are one of the oldest and most content-rich layers of oral folk art, expressing the worldview, culture, and mentality of a nation. The research examines the general semantic fields, semantic shifts, conceptual foundations, and symbolic interpretations of German and Uzbek proverbs. Additionally, the study of proverbs draws upon theories of various scholars, including W. Mieder, V. Telia, Sh. Rahmatullayev, and other researchers.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss8/S-pp195-199>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Qardosh bo'lmagan tillardagi maqollarning semantik tahlili (nemis va o'zbek tillari misolida)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

maqol,
semantika,
frazologiya,
nemis maqollari,
o'zbek maqollari,
qiyosiy tahlil.

Ushbu maqolada qardosh bo'lmagan tillar — nemis va o'zbek tillaridagi maqollar semantik jihatdan tahlil qilinadi. Maqollar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va mazmungan boy qatlamlaridan biri bo'lib, ular millatning dunyoqarashi, madaniyati va mentalitetini ifodalaydi. Tadqiqot davomida nemis va o'zbek maqollarining umumiy semantik maydonlari, ma'no ko'chishlari, konseptual asoslari hamda ramziy talqinlari o'rganiladi. Shuningdek, maqollarni o'rganishda turli olimlarning nazariyalari, jumladan, W. Mieder, V. Telia, Sh. Rahmatullayev va boshqa tadqiqotchilar qarashlariga tayaniladi.

¹ PhD student, Samarkand State Institute of Foreign Languages.
Email: lazizjon@mail.ru

Семантический анализ пословиц на неродственных языках (на примере немецкого и узбекского языков)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

пословица,
семантика,
фразеология,
немецкие пословицы,
узбекские пословицы,
сравнительный анализ.

В данной статье проводится семантический анализ пословиц на неродственных языках — немецком и узбекском. Пословицы являются одним из самых древних и содержательно богатых пластов народного устного творчества, отражающих мировоззрение, культуру и менталитет нации. В ходе исследования рассматриваются общие семантические поля, переносы значений, концептуальные основы и символические интерпретации немецких и узбекских пословиц. Также при изучении пословиц учитываются теории различных ученых, в том числе взгляды В. Мидера, В. Телии, Ш. Рахматуллаева и других исследователей.

KIRISH

Maqollar millat tafakkuri va madaniyati mahsuli sifatida xalq tilining bebaho boyligidir. Har bir xalq o'zining turmush tarzi, tarixiy tajribasi va dunyoqarashini qisqa, lo'nda va obrazli shaklda maqollar orqali ifodalagan. Maqollarning semantik tahlili ularning nafaqat tilshunoslik, balki lingvokulturologiya, semiotika va psixolingvistika sohalari uchun ham dolzarbdir.

Nemis tilshunosi W. Mieder "Paremiology is the study of proverbs as a mirror of culture" deb ta'kidlaydi. Demak, maqollar semantik tahlili orqali til egalari tafakkuri va dunyoqarashini tahlil qilish mumkin. O'zbek tilshunosi Sh. Rahmatullayev esa maqollarni xalqning tarixiy xotirasi va axloqiy mezonlarini aks ettiruvchi vosita sifatida baholaydi.

Mazkur maqolada qardosh bo'lmagan tillar — nemis va o'zbek tillaridagi maqollar qiyosiy-semantik tahlil asosida o'rganiladi. Maqollar mazmunida milliy xususiyat bilan birga umumiy insoniy qadriyatlar ham namoyon bo'lishi alohida e'tiborga olinadi.

Nemis va o'zbek tillari maqollarining qiyosiy tahlili maqollar tipini sintaktik struktura, poetik struktura hamda obrazlar tizimi semantikasi, ya'ni maqollarning umumlashgan mazmunini aniqlashda uch holatni ajratish imkonini beradi. Umuman olganda, ushbu mezonlarning har biri maqolning tegishli tilda uzoq vaqt va intensiv mavjud bo'lishi natijasida yuzaga kelgan alohida omillarni yuzaga chiqarishga yordam beradi. Birgalikda (uyg'unlikda) ular har bir maqolning kelib chiqishi va tarixi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Qayd qilinganidek, maqollar obrazlilik bilan belgilanadi va uni ifodalash vositalari ancha ko'lamlidir. O'zbek maqollarida badiiy obrazlilikning eng rang-barang vositalari ishlatiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Maqollarni semantik jihatdan o'rganishning nazariy asoslari uzoq tarixga borib taqaladi. Maqollar semantikasini tahlil qilishda V. Teliya (1996) frazeologik birliklarning konseptual maydonini o'rganishga alohida urg'u beradi. Unga ko'ra, maqollar xalqning konseptual dunyoqarashini aks ettiradi va ular ramziy-semantik yondashuv orqali izohlanadi.

Shuningdek, nemis paremiologi W. Mieder (2004) maqollarni “qisqa, xalq tomonidan qabul qilingan donolik ifodasi” deb ta’riflab, ularning semantik tahlilida metaforik modellarni asosiy manba sifatida ko’rsatadi.

O’zbek tilshunosligida esa Sh. Rahmatullayev, M. Asqarova, A. Madrahimov kabi olimlar maqollarni semantik jihatdan o’rganib, ularni xalq tafakkurining qisqa ifodasi sifatida baholaydilar.

Ushbu maqolada yana biz nemis va o’zbek maqollarining umumiy semantik maydonlarini ham tahlil qilganmiz. Maqollarni qiyosiy o’rganish jarayonida ko’plab semantik maydonlarda o’xshashliklar mavjudligi kuzatiladi. Jumladan:

• **Mehnat va sabr-toqat haqidagi maqollar**

- Nemischa: *“Ohne Fleiß kein Preis.”* (Mehnatsiz mukofot bo’lmaydi.)
- O’zbekcha: *“Mehnat qilgan to’yadi.”*
Har ikki maqolda mehnatning natijasi sifatida baraka va mukofot tushunchasi semantik asos bo’lib xizmat qiladi.

• **Vaqt qadriyatini ifodalovchi maqollar**

- Nemischa: *“Zeit ist Geld.”* (Vaqt – bu pul.)
- O’zbekcha: *“Vaqt oltindan qadrli.”*
Bu maqollar inson hayotida vaqtning bebaho ekanini semantik jihatdan umumashtiradi.

• **Do’stlik va birlik haqidagi maqollar**

- Nemischa: *“Geteiltes Leid ist halbes Leid.”* (Bo’lingan g’am – yarim g’am.)
- O’zbekcha: *“Do’st kulfatda bilinadi.”*
Bu maqollarda do’stlikning haqiqiy sinovi qiyinchilikda yuzaga chiqishi semantik asos sifatida namoyon bo’ladi.

Milliy o’ziga xoslikni ifodalovchi maqollar

Qardosh bo’lmagan tillarda umumiy semantik asoslar bilan bir qatorda milliy-madaniy xususiyatlar ham ko’rinadi.

- Nemischa: *“Viele Köche verderben den Brei.”* (Ko’p oshpaz bo’lsa, taom buziladi.)
- O’zbekcha: *“Ko’p qozon qaynasa, birining qopqog’i qiyshayadi.”*

Mazmun jihatidan yaqin bo’lsa-da, ularning obrazida milliy madaniyat elementlari ifodalanadi. Nemis maqolida *oshpaz*, o’zbek maqolida esa *qozon* ramziy obraz sifatida ishlatilgan.

- Nemischa: *“Der Apfel fällt nicht weit vom Stamm.”* (Olma daraxtidan uzoqqa tushmaydi.)
- O’zbekcha: *“Otangni ko’rib o’g’lingni ol.”*

Har ikkisi ham ota-bola o’xshashligini ifodalasa-da, nemis maqolida tabiat obrazidan, o’zbek maqolida esa ijtimoiy munosabatdan foydalanilgan.

Ushbu qismda qardosh bo’lmagan tillardagi maqollarning qiyosiy tahlil shuni ko’rsatadiki:

1. Nemis va o’zbek maqollarida umumiy insoniy qadriyatlar (mehnat, vaqt, do’stlik, hayotiy tajriba) umumiy semantik asos sifatida ifodalanadi.
2. Milliy mentalitet va madaniyatga xos obrazlar (qozon, otangni ko’rib...) semantik jihatdan farqlanadi.
3. Har ikki tilda metaforik tafakkur asosida shakllangan ramziy obrazlar mavjud.

O’zbek tili maqollarining ritmik qurilishi rang-barangligi bilan ajralib turadi. O’zbek maqollariga oxiridagi, boshidagi, ichki qofiyalar bilan bir qatorda takrorlar ham katta

ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, nemis va o'zbek tillari maqollarining ritmik shakli turli-tuman bo'lib, qaysidir birini afzal ko'rish imkonsiz. O'zbek maqollarining uchdan bir qismi oxiridagi qofiyaga ega, nemis tilida ular ancha ko'proq.

"In der Kürze liegt die Würze" – (Ozgina-sozgina), nutqning qisqasi ma'qul deyiladi nemis maqolida. Shu ifodaning o'ziyoq uning shakli, qofiyasi va ritmi mohiyatan o'tkirligini ko'rsatish imkonini beradi, shuningdek bu ularning qofiya hisobiga tilning har bir tashuvchisi uchun tushunarli ekanligidan dalolat beradi.

Nemis maqollarida qofiya quyidagicha bo'lishi mumkin:

– **oxiridagi qofiya**, masalan, quyidagi maqollardagidek: "Was du heute kannst besorgen, das verschiebe nicht auf morgen" – (Bugungi ishni ertaga qo'yma); "Wer das ABC recht kann, hat die schwerste Arbeit getan" – (Ishni qilsang puxta qil (boshidan to'g'ri qil ma'nosida); "Am Abend gekammert, am Morgen gejamert" – (Kechasi ko'p yema, ertasi uvullama); "Langes Abendbrot macht dem Magen grosse Not" – (Dardning sababi tomoq, qarab yemagan ahmoq); "Abendrot - Gutwetterbrot" – (Kechki paytdagi shafaq yaxshi havodan darak); "Abends vull, Morgens null" – (Kechasi oh-voh, ertasi o'zing top); "Abenteuer ist selten geheuer" – (Sayoq yursang, tayoq yeysan); "Wer den Acker säht, der mäht" – (Nima eksang shuni o'rasan); "Was von Affen kommt, will lausen, was von Katzen kommt, will mausen" – (Qariysan qartayasan, o'z naslinga tortasan);

– **ichki qofiya**, masalan: "Allen kann auch kein König gefallen" – (Oy bilan kunday bo'l, barchaga birday bo'l); "Narrenhände beschmieren Tisch und Wände" – (Yomonning bir qiligi ortiq); "Auf Weh und Ach folgt Freude nach" – (Bir yomonning bir yaxshisi bor); "Abgeredet vor der Zeit gibt nachher keinen Streit" – (Maslahatli to'y tarqamas);

– **takroriy komponent**, masalan: "Gleich und gleich gesellt sich gern" – (Ko'r ko'rni qorong'uda topadi); "Geredet ist geredet, man kann's mit keinem Schwamm mehr abwischen" – (Aytilgan so'z, otilgan o'q); "Allermanns Freund ist Allermanns Narr" – (Hammaga do'st, hammaga ahmoq);

Tan olish joizki, paremiologiya sohasida sintaktik struktura tasniflar sistemasini yaratishda ham, qiyoslash-chog'ishtirish tadqiqotlarida ham belgilovchi omil sifatida tan olinmaydi. Nemis va o'zbek tillari paremiyalari tahlili shuni ko'rsatadiki, bu turning xarakteristikasi sifatida eng umumiy ma'nodagina ishlatilishi mumkin. Biroq, maqollarning sintaktik strukturasi, uning xususiyatlari ham tegishli ekvivalentlarni tanlash imkonini beradi va bu, nemis va o'zbek tillari uchun xarakterlidir.

Qiyosiy paremiologiyada u yoki bu folklordan ehtimoliy o'zlashmalar, parallellar masalasini hal qilishda, ayniqsa, grammatik shakli inversiyaga (o'rin almashishga), xizmatchi so'zlar va sinonimlarni qo'llashga imkon berganida ikkilamchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday holatlarda ham invariantlar (bir xil ma'nolik) haqida gapirish joiz, chunonchi leksik tarkibi sintaktik variatsiyalarni (har xillikni) istisno qiluvchi qator maqollar mavjud. Masalan, "Qo'l qo'lni taniydi" singari o'zbek maqolida bo'lgani kabi. Umuman olganda, unchalik ko'p bo'lmagan qator nemis maqollarida komponent o'z tarkibidadir, masalan: "Keine Rose ohne Dornen" – (Tikansiz atirgul bo'lmas); "Kein Haus ohne Winkel" – (Burchaksiz uy bo'lmas); "Wie der Mann, so das Werk"; "Wie der Abt, so die Brüder"; "Wie der Herr, so der Knecht" – (Ishiga qarab, egasiga boq) va hokazo. Bunday xususiyat so'zlar tartibi o'sha tilning grammatik qonunlari, gapning intonatsion strukturasi yoki alliteratsiya (bir xil undoshlarning takrorlanishi) bilan tavsiflanuvchi tillar uchun ayniqsa xosdir. Zero, nemis maqollarining farqlanib turuvchi xususiyati uning grammatik konstruksiyani buzish va gapdagi bo'laklardan birining, ko'pincha kesimning

tushirib qoldirilishi hisobiga sun'iy qisqaligidir. Umuman olganda, bunday holat barqarorlashgan tartibga, ya'ni qolip konstruksiyaga ega nemischa gaplar uchun xos emas.

XULOSA

Maqollar xalq tafakkurining qisqa va lo'nda ifodasi bo'lib, ular millatning dunyoqarashi, madaniyati va hayotiy tajribasini mujassamlashtiradi. Qardosh bo'lmagan tillar — nemis va o'zbek maqollarini semantik jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular umumiy insoniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirish bilan birga milliy xususiyatlarni ham yorqin ifodalaydi. Shu sababli maqollarni qiyosiy-semantik o'rganish lingvokulturologiya, tarjimashunoslik va xalqaro madaniyatlararo muloqot sohalari uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mieder, W. (2004). Proverbs: A Handbook. Greenwood Publishing Group.
2. Telia, V. N. (1996). Russkaya frazeologiya: semanticheskii, pragmaticheskii i lingvokulturologicheskii aspekty. Moskva: Shkola "Yazyki russkoy kultury".
3. Rahmatullayev, Sh. (1978). O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent: Fan.
4. Asqarova, M. (2005). O'zbek maqollari semantikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
5. Madrahimov, A. (2012). Frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili. Samarqand: SamDU nashriyoti.
6. Honeck, R. P. (1997). A Proverb in Mind: The Cognitive Science of Proverbial Wit and Wisdom. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum.
7. Anorqulov, S. I. (2020). TOPONYMS AS CULTURALLY SIGNIFICANT LANGUAGE UNITS. Theoretical & Applied Science, (9), 442-447.